



SOHIBQIRON – DUNYO NIGOHIDA

Omonova Durdona

TDPU talabasi

Omonova Mubora

Ilmiy rahbar: TDPU dotsent v.b., f.f.f.d., PhD

Annontatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning G' arb va Sharq adabiyotida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Renessans, Yevropa hukmdorlari, G' arbiy Yevropa adiblari asarlari, "Temur tuzuklari", ilm-fan, san'at, me'morchilik.

Dunyo tarixida juda katta nom qoldira olgan buyuk sarkarda, o'rta asrlarning eng mashhur qo'mondoni, ulkan imperiya asoschisi, kuchli strateg va siyosatshunos sifatida dovrug' qozongan Amir Temur siymosi hozirgi kunda ham jahon ilm-fan ahli tomonidan yuksak hurmat bilan e'tirof etilmoqda. Tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan - Amir Temur Hazratlari buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdirish barobarida, ilm-fan, madaniyat rivojiga keng yo'l ocha olgan mumtoz siymodir. Shuning uchun ham qariyb olti asrдан buyon bu ulug' zotning hayoti va faoliyati nafaqat Musulmon sharqining balki, G' arb olimlari, adiblari va san'at ahlining e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

Darhaqiqat, Sohibqiron jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan hukmdor va davlat arbobi sifatidagina e'tirof etilmaydi. O'z davrining poytaxti bo'lmish Samarcandni yer yuzining madaniy va me'moriy, ilmiy-ma'naviy, markazlaridan biriga aylantira olgan siymo, "Temuriylar Renessansi" asoschisi sifatida ham bashariyat tarixshunoslari va temurshunoslari diqqat markazida turadi. Xorijilik mutaxassislar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarda Amir Temur sultanati o'sha davrdan boshlab qo'shni mamlakatlar, Yevropa hukmdorlar, san'at ahlida qiziqish uyg' otgan.

G'arbning buyuk temurshunos vakillaridan biri Jan Pol Ru ta'biri bilan aytganda: "XVI-XVII asrlarda Fransiya, Italiya, Ispaniya, Angliya va Germaniyada Amir Temurga bo'lgan qiziqish hayratomuz darajada ortib ketdi."

G'arbiy Yevropaga Amir Temur haqidagi ilk ma'lumotlar Qora dengiz bandargohlarida faoliyat ko'rsatgan venetsiyalik va genuyalik savdogarlar orqali yetib borgan. Sohibqiron va uning sultanati, xususan harbiy salohiyati haqidagi ilk yozma ma'lumotlar ham ayni shu paytda, Amir Temur hayotligi davridayoq paydo bo'la boshlagan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sultonija yepiskopi Jan (Ioann)ning qalamiga mansub "Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar" asari va Kastiliya



elchisi Rui Gansales de Klavixoning “Kundaliklar”i Amir Temur shaxsi, uning hayoti va faoliyati haqidagi bebaho hujjat hisoblanadi.

Ioanning “Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar” kitobi 23 qismdan iborat bo’lib, unda Amir Temurning Muvarounnahr taxtiga o’tirgandan boshlab, 1402-yil avgust oyigacha bo’lib o’tgan voqeа hodisalar tilga olinadi. Sohibqironning g’animlari, do’stlari, qo’shinda o’rnatgan tartib qoidalari, davlat arbobi va sarkardalik faoliyati, Amir Temur shaxsi, hatto uning fe'l-atvori, didi hamda qiziqishlari haqida qimmatli va boshqa hech kim tilga olmagan ma'lumotlar keltirilgan:

U (Temur Bey) har doim ochiq dalada, harir shohi chodir ostida umr o’tkazadi... Biroq ularga zarur barcha narsalar xuddi shaharlardagidek bu yerga olib kelinadi, sotiladi va xarid qilinadi. Bu o’lkalarga uzoq o’lkalardan oziq-ovqat mahsulotlari olib keluvchi savdogarlar juda ko‘p.

Amir Temur sultanati Sharqqa tomon shuncha katta makon va yo’l egallaganki, uning bir chekkasidan ikkinchi chekkasiga yetish uchun timmay yarim yil yo’l bosish kerak.

Bir marta uning janggiga kirgan va janggohni g’olibona tark etganini o’z ko’zim bilan ko’rgach, shunday xulosaga keldimki, Temurbek, hech shubhasiz, o’z davrining eng jasur o’g’lonidir.

Dunyoning boshqa biror bir mamlakatida Temurbek qo’shinida joriy etilgan tartib va intizomni uchratmaysiz.

Yevropa muarrixlari Amir Temurning salohiyati, G’arb va Sharq o’rtasida do’stlik, va birodarlik aloqalarini o’rnatishga qo’shgan hissasiga yuksak baho beradilar. Jumladan, Kastiliya qiroli Genrix III tomonidan elchi sifatida kelgan Klavixo o’z “Kundalik” kitobida Amir Temurning dinidan, e’tiqodidan qat’iy nazar Kastiliya qiroli bilan yaxshi munosabatlar o’rnatish tarafdori bo’lganligini ta’kidlaydi. Amir Temur Kastiliya qiroliga otalarcha g’amxo’rlik ko’rsatganligi haqidagi ma'lumotlar Klavixo esdaliklarida alohida qayd etiladi:

“Mana dunyoning u burchagida yashovchi mavjud farangi qirollar orasida eng peshqadami – mening o’g’lim Ispaniya qiroli yuborgan elchilar! Ispan xalqi – buyuk xalq. Men o’g’lim, qirolni sharaflayman. Qirol sizlarni sovg’asiz, faqat maktub bilan yuborganda ham men o’g’limning ahvoli va sog’lig’ini bilib, sovg’a olgandek xursand bo’lur erdim”.

Kastiliya qirolining Amir Temur huzuriga jo’natgan elchilar Ispaniyaga qaytganlaridan so’ng, bu yerda Samarqandga uyushtirilgan safarlar, ularni amalga oshirgan elchilar va Amir Temur haqida ko’plab afsona va rivoyatlar paydo bo’la boshlagan. Klavixo asarida real tarixiy shaxs sifatida tasvirlangan Amir Temur, Kastiliyada afsonaviy shaxsga, xalq ertaklari qahramoniga aylanib ketdi. Aynan shu afsona va rivoyatlar Sohibqiron siyosining XV – XVI asrlar Yevropa badiiy adabiyotiga kirib borishiga yo’l ochib berdi. XVI – XX asrlar oralig’ida G’arb



mamlakatlarda shavkatli Sohibqiron timsoli tasvirlanga 60 dan ortiq turli janrdagi ilmiy - badiiy asarlar yaratildi. G'arb adiblari, dramaturg va operanavislari asarlarida Amir Temur qiyofasi o'ziga xos tarzda talqin qilindi.

L.M.Lenglening "Amir Temur hayoti" (La vie de Tamerlan), L.Kayunning "Temur va Islom zafari" (Timour et le triomphe de l' Islam) G.Kapyusning "Amir Temur sultanati", Emmanuel Berening "Osiyo muzaffari" (Le Triomphe de l'Asie) asarlarida Amir Temur timsoli turlicha tasvirlangan . Mazkur asarlar orqali G'arb tomoshabiniga qiziqarli voqealarga boy antiqa sujetlar bilan birga, siyosat va madaniyat sohalariga xos yangi axborotlar taqdim etilgan. Shu barobarida Yevropadagi insonlarning Sharqqa nisbatan dunyoqarashi ham shakllanib borgan.

Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli sultanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o'rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab yetishda "Temur tuzuklari" bebafo qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. XVIII asrda Fransiyada yashab ijod etgan tarixshunos va tarjimon L.M.Lengle tomonidan "Temur tuzuklari"ni ingliz tili va asliyatdan fransuz tiliga tarjima qilishi Yevropada Amir Temur haqidagi bilimlar va tasavvurlarning keng yoyilishida katta hissa qo'shdi.

Taniqli fransuz muarixi Leon Kayun o'zining "Osiyo tarixi. Turklar va mo'g'ullar. Moziydan 1405-yilgacha" nomli tadqiqotida boshqa temurshunoslardan farqli o'laroq, Sohibqironning G'arb va Sharq o'tasida do'stlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi va mustahkamlanishi masalalariga e'tibor qaratadi. Uni mohir sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi sifatida tasvirlaydi: "Sohibqironning Keshda qurayotgan binolarini kuzatgan Klavixoning yozishicha, – ta'kidlaydi L.Kayun, – ularni ko'rib butun dunyo, hatto Parijdagi eng mohir san'atkorlar ham lol qolardi". Albatta, bu Temuriylar davrida Muvoraunnahrda san'at va adabiyotning gullab yashnaganidan dalolatdir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Amir Temur shaxsi bilan qancha g'ururlansak, faxr-u iftixon tuysak shuncha munosibdir. Binobarin, Sharqda Uyg'onish davrining tamal toshini qo'yan qudratli hukmdor, Yevropa xaloskorii-Amir Temur bashariyatning buyuk siymolaridan biridir. Buyuk Temurga teng keladigani kam topiladi. Temurdan o'tadigani esa topilmasa kerak. Zero, shu paytgacha Sharqda hech kim unga teng keladigan birorta insonni ko'rgan ham, uchratgan ham emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov.I. "Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi"/Temur tuzuklari/ – Toshkent: O'zbekiston, 2011.



2. Ermatov B. Amir Temur G'arbiy Yevropa adiblari nigohida. – Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2019.
3. Amir Temur G' arb adiblari nigohida". – Toshkent: "Davr Press" NMU, 2016.
4. Brion M. Menkim Sohibqiron – Jahongir Amir Temur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
5. Ahmedov B., U.Uvatov, G.Karimov va boshq. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida (risola). – Toshkent: O'qituvchi, 1996.